

## Chet Tillarni O'Qitish Metodlari Va Innovasion Usullari

*Sarimsakova Shaxnoza<sup>1</sup>*

**Annotatsiya:** Chet tillarni yuqori saviyada egallash va uni amalda oson qo'llay olish juda muhim, chunki hozirda ko'plab sohalarda xorijiy hamkorlar bilan aloqa o'rnatish ko'paymoqda. Bugungi ta'lim bozorida, xorijiy tilni bilish darajasi turlicha bo'lgan o'rganuvchi talabalar uchun mo'ljallangan katta ko'lamdagi o'quv materiallari, axborotlar bazasi mavjud ammo xorijiy tilni o'rganishdagi muvaffaqiyat o'qituvchining malakasi hamda til o'zlashtirish jarayonida qo'llanilgan metodlarga ham har tomonlama bog'liqdir.

**Kalit so'zlar:** An'anaviy grammatik-tarjima yodashuvi, o'qitish metodlari, gumanistik yondashuv, kommunikativ yondashuv, muammoli yondashuv.

Butun jahon bo'ylab chet tillarni o'rganish va uni amaliyotda qo'llay olish o'z muhimligini yo'qotmay kelmoqda. Bu borada Respublikamiz mustaqillikka erishganidan so'ng turli xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqish sezilarli darajada oshdi va o'z navbatida xorijiy tillarni tez va samarali o'rgatish ham dolzarb masalalardan biri sanalmoqda. Xususan, jahonning eng talab ko'p bo'lgan tillaridan biri bo'lgan va hozirda butun dunyo bo'ylab 40 foiz aholining ikkinchi muloqot tiliga aylangan ingliz tilini samarali o'rganish muhimligicha qolmoqda. Qisqa fursatda chet tillar bo'yicha mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimi uchun davlat standartlari ishlab chiqildi, ta'limning barcha bosqichlari bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar belgilandi. Navqiron avlodni jismonan sog'lom, intellectual rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, qat'iy hayotiy pozitsiyaga ega, Vatanga sodiq qilib tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish 2017- 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida muhim vazifalar sifatida belgilangan [1; 70].

Tilni yaxshi o'zlashtirmagan o'rganuvchilar uchun Don't you want to go? va Would you like to go? iboralari o'rtasidagi farq sezilmaydi, ammo britaniyaliklar uchun bu iboralar farq qiladi.

Tilshunos olimlarning fikricha, bunday xatoliklarning 52%i ona tilidagi iboralarni ingliz tiliga to'g'ridan-to'g'ri o'girish bo'lsa, 44%i til o'rganuvchi bilim va salohiyatining yetarli emasligi bilan belgilanadi. Xorijiy tilni o'rganish jarayonida eng muhim jihat – uzatilayotgan ma'lumot mazmunining qanchalik darajada to'g'ri kelishidadir. Lingvososiomadaniy metod asosiy ikki turdagi muloqotni o'z ichiga oladi. Bu til va madaniyatlararo muloqotdir. Bu borada Oliy ta'lim talabasi nafaqat ingliz tilida o'qish, yozish va tarjima qilishda sezilarli yuqori bosqichlarni egallashi, balki ingliz tilini o'zga xalq madaniyati sifatida ko'ra olishni, tahlil qilishni ham o'rganishi lozim, mohir Ingliz tili o'qituvchisi esa til o'rgatish jarayonida aynan shu jihatlarga e'tiborni kuchaytirishi kerak [2:103].

Yangi xorijiy tilni o'rgatish usullaridan tilni yana bir turi kommunikativ metod bo'lib, bugungi kunda u Yevropa va AQShda keng qamrovda qo'llanilmoqda. O'z nomi bilan ma'lum bo'lganidek ushbu metod o'zaro muloqotga asoslangan bo'lib, unda har qanday til o'rganish treninglari asosini tashkil etuvchi o'rganilayotgan til matnini o'qish, yozish, so'zlashish va dialoglarni anglash muhim hisoblanadi. Yana, o'qituvchilar bu metodni qo'llashda so'nggi ikki usulga (so'zlashuv va dialoglarni anglash)ga e'tiborni ko'proq qaratadilar va bunday darslarda siz murakkab so'z qurilmalari va jiddiy leksikaga duch kelmaysiz ammo kommunikativ metodning kamchiligi biror-bir sohada so'z boyligiga ega bo'lgan talaba shu mazmundagi matnning mazmuniga oson tushunadi va soha mutaxassisi bilan

<sup>1</sup> Baxtiyarovna-SamDCHTI tyutori



jiddiy muloqotga kirishga qiynaladi. Ushbu metodning bosh maqsadi – muloqot oldidagi qo‘rquvni yengish, o‘zida so‘zlashishda bo‘lgan hayajonni yengishdir.

XI asr boshlariga kelib ingliz tili metodikasi o‘zida ko‘plab qiziqarli va samarali metod hamda yondashuvlarni mujassamlashtirdi va tilchi olimlar tomonidan xorijiy tilni samarali o‘qitish metodologiyasini boyitilishi natijasida u ko‘p tarmoqli sohaga aylandi va bu borada bir qancha yondashuvlar ham yaratildi. Ulardan birinchisi gumanistik yondashuv unga ko‘ra, o‘rganish jarayoni to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘rganuvchining individualligiga va qiziqishiga borib taqaladi va o‘rganuvchining ehtiyojlarini e‘tiborga olish xorijiy tilni o‘zlashtirishga katta hissa qo‘shdi. O‘yinli o‘quv vaziyatlarini yaratish, shaxsning individual tilga bo‘lgan qiziqish va xususiyatlarini hisobga olish uni jarayonga kuchliroq jalb qila boshladi. Ushbu gumanistik metodda o‘qituvchining shaxsiyati kamroq ahamiyatga ega hisoblanadi.

Gumanistik metod o‘rganishning bir qancha turli xil muqobil metodlarining shakllanishiga olib keldi. Ularning maqsadi esa xorijiy tilni o‘rganish, muloqot va yozish mahoratini shakllantirishdan iborat va bu metodlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- jismoniy faoliyatga, harakatlarga tayanish
- «jamoaviylik» tamoili
- «yakka tarzda o‘rganish»
- nevro-lingvistik loyihalashtirish

An’anaviy grammatik-tarjima yodashuvi ushbu metod til mahoratlarini shakllantirmaydi. Til o‘rganuvchi yuqori murakkablikdagi turli matnlarni o‘qish va tarjima qilish mahoratiga ega bo‘lsada, lekin u xorijiy tildagi bilimlarini hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olmaydi. Komunikativ metodning o‘ziga xos tarafi u grammatik bilimlarni gapirish va yozish mahoratlari shaklida qo‘llashga imkon beradi. Muhim vazifalardan biri esa lug‘at boyligini ko‘paytirish va amalda qo‘llash hisoblanadi. Ammo bir muammo ham bor ya’ni, yangi o‘rganilgan so‘zlar nafaqat passiv shaklda balki aktiv shaklda ham o‘rganuvchu ongida saqlanishi lozim. Boshqacha qilib aytganda, talaba yangi so‘zni tarjimasini bilibgina qolmay, o‘sha so‘z ongida mustahkam qolgan bo‘lishi va uni o‘zining nutqida hamda yozayotgan matnlarida ham qo‘llay olishi kerak.

Bugungi kunga kelib, o‘qituvchilar an’anaviy grammatika va tarjima mashqlaridan asta-sekinlik bilan uzoqlashmoqdalar. Ular chet tilini chuqur o‘zlashtirish uchun har xil usullardan, mashqlardan foydalanmoqdalar va grammatik bilimlarni faqatgina so‘zlashuv mahoratlarini shakllantirish uchun qo‘llamoqdalar. Mashqlar esa tinglash, o‘qish, yozish va shu kabilarni qamrab olishi bilan harakterlanadi.

Xulosa qilib aytganda, tilni chuqurroq samarali o‘rganish, oson muloqotga kirishish uchun yuqorida sanab o‘tilgan uchta metodni o‘z o‘rnida qo‘llagan holda ingliz tilini o‘rganuvchilarga o‘qitish lozim. Fikrimizcha, eng avval talabani ingliz tilida so‘zlashga o‘rgatib, tilga qiziqtirib ikkinchi bosqichda shu tilda o‘ylashga o‘rgatish ko‘proq foydali bo‘ladim bu esa o‘z navbatida ancha qiyin, ammo amalga oshirish mumkin bo‘lgan jarayon. Buning uchun ingliz tili o‘qituvchisi dars berish metodini standart an’anaviy yondashuvdan tashqari turli tuman o‘yinlar, boshqa o‘rganuvchilar bilan muloqot, xatolarni topish bo‘yicha har xil mashqlar, matnlarning qiyosiy tahlili kabilar bilan boyitishi lozim.

Ingliz tilini o‘qitishning yana bir usuli – intensiv metoddur. Uning asosini muloqot va so‘zlashish uchun eng zarur iboralarni yodlash tashkil etadi va til o‘rganish uchun mazkur metodni tanlagan talaba Bayron asarlarini asliyatda o‘qiy olmasligi mumkin, biroq zarur payti o‘z suhbatdoshi bilan chet tilida muloqotga kirisha oladi. Intensiv metod orqali dars o‘tayotgan o‘qituvchi, dialoglarni qurol qilib oladi. Shuni ta’kidlash lozimki, bu orqali ham ikki haftada ingliz tilini o‘rganish mumkin lekin mehnatsevar, o‘z ustida ishlaydigan talabalar bu metod orqali tilni uch oyda bimalol o‘zlashtirishlari va bimalol suhbatga kirishishlari mumkin.



## ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-sonli farmoni. 2017-yil 7-fevral. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, Toshkent sh.,2017-y., 6-son, 70-modda.
2. Артемов В. А. Психология обучения иностранному языку. — М.: Педагогика, 1989. – 103 б.

